

Hazrati Aliy mahallasida Oliy Majlis deputati faollar bilan uchrashdi



Hazrati Aliy mahallasida Oliy Majlis deputati faollar bilan uchrashdi

So'x tumani Hazrati Aliy mahallasida Sarikanda, Saribozorcha va Hazrati Aliy mahallalari faollari bilan Oliy Majlis deputati Ahmadjon G'aniyev uchrashdi.

Uchrashuvda Bosh qomusimizga kiritilayotgan o'zgarishlar, so'xlik fuqarolar tomonidan berilayotgan takliflar, siyosiy jarayonda aholining faol ishtirok etishi xususida alohida to'xtalib o'tildi.

Tadbir davomida mavjud muammolar deputatga yetkazildi. Yuqorida aytilgan mahallada istiqomat qiluvchi faol fuqarolar taqdirlandi.

Hazrati Aliy mahallasi deputati S. Nishonovning tuman aholisini ichimlik suvi bilan taminlash masalasi bo'yicha Senatga yuborilgan xati muhokama etildi va Oliy Majlisda ham muhokama etilib, ijobiy hal etilayotgani Oliy Majlis deputati tomonidan ma'lum qilindi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-06-30 19:02:42